

## CHET TILLARINI O’RGANISH VA O’RGATISHNING USLUB VA METODLARI

**Pardayeva Yorqinoy Asqar qizi**

O’zDJTU Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-fakultet talabasi

[yorqinoypardayeva75@gmail.com](mailto:yorqinoypardayeva75@gmail.com)

Scientific Advisor

**Axmedjanova Dilraxon**

[daxmadjonova@gmail.com](mailto:daxmadjonova@gmail.com)

O’zDJTU Xorijiy til va adabiyoti o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda deyarli barcha sohada talab qilinayotgan chet tillarini o’qitishda qo’llanib kelinayotgan uslub va metodlar haqida ma’lumot berishga qaratilgan.

**Annotation:** This article aims to provide information about the methods and techniques used in the teaching of foreign languages, which are currently in demand in almost all fields.

**Аннотация:** Данная статья призвана предоставить информацию о методах, используемых в обучении иностранным языкам, которые в настоящее время востребованы практически во всех областях.

**Kalit so’zlar:** til, metodika, tanishish, mashq qilish qo’llash, o’quv material, metodika.

**Asosiy qism.** Til o’rganish kishilik jamiyatida juda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqotning vositalaridan biri bo’lmish tilni tabiiy muhitda, ya’ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Xalqaro munosabatlar rivojlanib borayotgan davrda chet tillarini bilish, ayniqsa,



ko'p tillilik katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda bog'cha va maktab vaqtdan boshlab chet tilini o'qitish boshlanadi.

O'quvchilarga chet til uchinchi til sifatida o'rgatiladi. Majburiy o'quv predmetlaridan bo'lmish chet tili, boshqa fanlar qatorida umumiy ta'lim berishda o'z ulushini qo'shadi. Chet tili o'rganish natijasi ham, jarayoni ham umumta'limiy ahamiyatga egadir. Chunki chet tili vositasida olinadigan axborotdan tashqari, uni o'rganish jarayonida qo'llanadigan til birliklari tafakkurni rivojlantiradi, nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularning til tajribasini boyitadi.

Chet tilini o'rganish va o'rgatish muayyan o'qitish texnikasini taqozo etadi. Chet tillarini samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanishiga bog'liqdir.

Metod – metodika tushunchasi grek-lotinchada “metodos”, “methodus” so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. “Metod” atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi.

Chet tilini o'qitish metodi – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmui tushuniladi. Metod atamasi “ta'lim usullari yig'indisi” va “ta'limning yo'nalishi” ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi, ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongliqiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.



Chet tilini o'qitish metodikasi psixologiya (ruhshunoslik) bilan ikki taraflama – nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog'laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da va nutqning sodir bo'lishi hamda uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga keladi. Chet tilini egallashdan oldin o'rganilgan tillar asosida o'xshash elementlar (tovush, so'z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog'lanishlari, yot elementlar esa – yangi bog'lanishlar paydo etilishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi.

Chet tilini o'qitish jarayonida amaliy foydalanadigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelinadi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtayi nazaridan nomlangan. O'quvchining chet tilini o'rganishdagi vazifasi o'quv materiali (ya'ni til materiali) bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

**Tanishish** o'quv materialini o'rganishdagi birinchi qadamdir. Til birligini o'rganishga kirishar ekan, o'quvchi uning shakli (tovush tomonini og'zaki nutqda aniq-ravshan eshitish yoki grafik timsolini yozma matndan ko'rib o'qiy olish), ma'nosi (predmet, hodisa, harakat bilan fikran bog'lash) va qo'llanishi (boshqa birliklar bilan qo'shilishi, qanday holatda ishlatilishi) bilan tanishadi.

**Mashq qilish** yo'li bilan o'rganilayotgan til hodisalari mustahkamlanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi. Amaliy muloqot maqsadida til materialini qo'llash uchinchi bosqich hisoblanadi. **Qo'llash** davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi. O'quvchilarning tanishish, mashq qilish va qo'llash vazifalari metodika tilida o'qitish metodlari deb yuritiladi. Ular “o'qitish jarayonida qo'llanadigan metodlar” nomi bilan ham ataladi. Bu metodlar ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarishi bilan birga, ularga o'quv materialini o'zlashtirish bosqichlari tarzida ham qarash mumkin.

“**Tanishish**” metodidan foydalanish mobaynida soʻz, soʻz birikmasi, grammatik hodisa, matn kabilar oʻrganiladi. Ularni oʻquvchi eshitishi, koʻrishi, birvarakay eshitib koʻrishi mumkin. Idrok etganda ularni sezgilar orqali payqash va mazmunini oʻqib olishdek bir yoʻla ikki tomonlama ish bajariladi. Muallim esa narsa-hodisani koʻrsatib, chet tilda (masalan, inglizcha) aytadi. Ayrim sodda tushuntirish – izoh berish ham muallim vazifasiga kiradi. Predmet yoki hodisani koʻrsatishda rasmlar, flaneagraflar, magnit taxtasi kabilar keng qoʻllanadi. Texnika vositalarining ovozli, namoyish etadigan, koʻrsatib ovoz eshittiradigan turlaridan samarali foydalanish mumkin.

**Xulosa.** Chet tilini oʻqitishdagi ilgʻor tajribalarni oʻrganish, umumlashtirish va yoyishdan koʻzlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qoʻlga kiritishga qaratiladi. Ilgʻor ish tajribasi umumiy tarzda (chet til oʻqitish tajribasi) yoki ayrim kichik soha (masalan, dars boshlanishida til muhitini yaratish, murakkab grammatik hodisani amaliy oʻrgatish kabi)larni tadqiq qilishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamol Jalolov “Chet til oʻqitish metodikasi”
2. Otaboyeva Mazmuna “Chet tillarini oʻqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi”
3. Zayniddin Sanaqulov “Chet til oʻqitish metodikasida zamonaviy metodlar”